

ALPOMISH DOSTONIDA MUBOLAG'A

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti talabasi E.Usmankulova
Ilmiy rahbar: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti dotsenti M.J.Xasanova

Annotatsiya: Quyidagi maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodida dostonlar gulto'i, eng durdona asar hisoblangan Alpomish dostonida keng o'rin olgan mubolag'a san'atining ishlatilish o'rinlari tahlil qilinadi, ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar : Alpomish , doston, mubolag'a , tablig' , ig'roq, g'uluv, qalmoq , Barchin , Qorajon , chilton.

O'zbek xalqi azal-azaldan o'zining tarixda o'chmas iz qoldirgan siymolari, boy ma'naviy, tarbiyaviy jihatlarga ega bo'lgan asarlari, og'zaki ijodning yorqin namunalari bilan do'vruq qozongan. O'zbek folklorida dostonlar ham alohida mavqega ega hisoblanib, u bir necha asrlar davomida sayqallanib, rivojlanib, og'izdan og'izga o'tib, mukammal holatga kelgan. Alpomish dostonida ham qahramonlik, urf-odat, sevgi-muhabbat, vatanparvarlik, sha'n, g'urur, qarindoshlar o'rtasidagi munosabat, do'stlik va yana boshqa bir qancha mavzular qalamga olingan. Bular esa dostonning elga mashhur, o'quvchi tomonidan sevib mutolaa qilinishiga asos bo'lgan. Uning ko'plab versiyalari mavjud: qoraqalpoq, qozoq, oltoy versiyalari doston shaklida, tatar va boshqird versiyalari ertak va rivoyat shaklida bizgacha yetib kelgan. Qolaversa, turli xalqlar o'zlarining yurtlarida boshqacha nom bilan ataganlar. Uning keng tarqalishining sabablaridan biri shuki, Qo'ng'iroq qabilasining turli elatlarga ko'chib o'tishi natijasida doston ham qo'ldan qo'lga o'tib keng ommalashgan.

Ushbu dostonida mubolag'adan unumli foydalanilgan. U qahramonlarning kuch-qudrati, holati, ko'rinishini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Mubolag'a – arab tilida “kattalashtirish” , “ bo'rttirish”, “kuchaytirish” degan ma'nolarni ifodalab , badiiy asarda tasvirlanayotgan va tavsiflanayotgan har qanday shaxs, narsa, predmet, joyning bo'rttirilishi, haddan ziyod kattalashtirilish san'atidir. Badiiy asarlarda esa voqea-hodisalar tufayli qahramonlarning holati yaqqolroq hamda ta'sirchanroq tasvirlanadi. Mubolag'a uch turga bo'linadi: tablig', ig'roq, g'uluv.

Tablig' deyilganda aqlan ishonish mumkin bo'lgan, haqiqatdan ham hayotda sodir bo'lishi mumkin sanalgan mubolag'aning turi hisoblanadi. G'azal mulkining sultoni Alisher Navoiyning ushbu g'azalida tablig'dan unumli foydalanilgan:

Lahza-lahza chiqdim-u, chektim yo'lida intizor,

Keldi jon og'zing'a-yu, ul sho'xi badxo' kelmadi.

Badxo' – badfe'l, qilig'I yomon.

Alpomish dostonida tablig' Alpomish bilan Qorajonning ko'rishgan holati orqali ifodalanadi :

“ Qorajon bilan Alpomish yoydi, qulochdi, ikkovi xulqi muhabbat bilan qurishdi. - Qalaysan, do'stim, omansanmi , - deb sinqirib yubordi, Qorajonning yetti qobirg'asi sindi, ishi tindi, tappa tushib yotib qoldi “ .

Ishi tinmoq – ahvoli og'irlashmoq. [1;147]

Alpomish Qorajonni ko'rganda xuddi bir necha yillik qadrdon do'stini sog'inib ko'rganday, qattiq quchoqlaydi, natijada esa Qorajonning qo'li qisilib, mahrami qochadi, yetti qovurg'asi sinadi. Alpomish hol- ahvol so'raganda Qorajon yolg'on so'zlab, tutqanoq kasalligim bor edi deb qo'ya qoladi hamda Alpomishning g'oyatda kuchliligiga tan beradi.

Mubolag'a san'atining ikkinchi turi ig'roq deb ataladi. Bu turiga aqlan ishonish mumkin bo'lgan , lekin hayotda yuz bermaydigan tasvirlar kiradi. Atoiyning ushbu g'azalidan parcha misol bo'ladi:

Emdi bildim rost emish , balki ko'rdim ko'z bila,

Ulki derlar, suv qizi goh-goh ko'zga ko'rinur.

Yoki

O'zbek zabardast shoirlaridan biri Ogahiyning “Ustina” radifli g'azalida ham ushbu san'at turidan unumli foydalanilgan:

Boshimg'a yoqqan g'am toshin mingdin biricha bo'lmag'ay,

Gardun agar ming Besutun yog'dursa Farhod ustina.

Ig'roqqa misollar keltirmoqchiman :

- ❖ “ Hakimbek yetti yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda Hakimbek shul o'n to'rt botmon yoyni qo'lga ushlab , yetti yashar bola ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyning o'qi yashinday bo'lib ketdi. Asqar tog'ning katta cho'qqilarini yulib o'tdi, ovozasini olamga ketdi. [1;11]

Birich- bronza.

Bir botmon (arab) – og'irlik o'lchov birligi. Shariatga ko'ra, botmon, asosan, 0,832 kg ni tashkil etgan. Demak, o'n to'rt botmon – 11,648 kg sanaladi. Sir emaski, o'zbek o'g'lonlarining botirligi, jasurligi kichik yoshdaligidanoq ma'lum va mashhurdir. Albatta, unga hasad ko'zi bilan qaraydiganlar ham yo'q emas va 7 yoshli bolaning bunday og'ir yoyni ko'tarib tortishiga ishonmaydi, lekin xaloyiq Hakimbek 90 alpnig biri bo'ladi deydi hamda shundan so'ng unga Alpomish ot qo'yildi. Bu hodisaga ishonish mumkin, lekin 7 yashar Hakimbekning bunday og'ir darajadagi yoyni ko'tara olishi ehtimoldan yiroq.

- ❖ “Boysarining qizi Barchinni bular ko'rgani yo'q. Shul vaqtlarda Barchin ham barkamol, bo'yi yetgan, har yag'rini o'n besh qarich keladi : bu ham alp. [1;44]

O'zbekim qizlari haqida gap ketar ekan, ularning iffati, hayosi, or-nomusi, shuningdek, yigitlardan qolishmaydigan kuch-jasorati haqida qancha tahsinlar aytsak, shuncha kam. “Alpomish” dostonida ham ayollar asarning mazmun-mohiyatini yoritishda yetakchi rol o'ynagan, ayniqsa, Barchinoy, Qaldirg'ochoyim kabi timsollar yuqoridagi so'zimga dalil bo'ladi. Bir o'zbek qizi Barchinoyning ham botirlardan qolishmaydigan kuchlilikini alp deya tashbeh qilib, ig'roq turi orqali aytuvchi uni mohirona qo'llagan.

- ❖ Qorajonga ajdar salom beradi.
(Shoir so'zi shunday yolg'on bo'lami,
Ajdahor odamga salom berami ?!)
Ostida mingani Boychibor edi,
Minganlarga qutbi zamon yor edi,
Jilovida chilton, pirlar bor edi,
Pirga salom bergan ajdahor edi. [1;192]

Ajdarho- o'zbek xalq og'zaki ijodida afsonaviy maxluq bo'lib, og'zidan olov purkaydigan dahshatli jonzot sifatida tasvirlanadi. Dostonlarda botirlar ularni yengish orqali o'z orzu-maqсадlariga erishadi. Qiziqarli holat shuki, bunda doston aytuvchining o'zi ham ajdahor odamga salom bermaydi-ku tarzida ifodalab, asarning jonli chiqishiga sabab bo'lgan hamda ig'roqni yuzaga keltirgan.

- ❖ Qultoy:

-Men sizlarga burungi kuchimni aytay, Alpomishning Alpinbiy bobosidan qolgan, o'n to'rt botmon birichdan, bo'lgan [yoyi bor erdi]. Arpalining ko'lida yotib, Alpomish bilan ikkovimiz yoy tortishar edik. O'n to'rt botmon yoyni ko'tarib tortar edik, yoyining o'qi yashinday bo'lib ketar edi. Asqar tog'ning katta cho'qqilarini yulib o'tar edi. Alpomishning yoyining o'qidan mening yoyimning o'qi o'tar edi, - dedi.

Shunda qullar odam buyurdi.

Yoyning bor ekanini ko'rdi, ko'p qo'sh ho'kizlarni haydab bordi, yoyni qimirlata olmadi. [1;528]

Ushbu parchaning mohiyati shundan iboratki, Alpomish yoy tortgani shu qadar kuchli ediki, hattoki ko'plab qo'sh ho'kizlar ham uni qimirlata olishga qodir emas. Demak, bu orqali Alpomishning naqadar bahodirlik salohiyati kuchli ekanligi, yoy tortishda mergan ekanligi yaqqol ko'zga tashlangan.

Asarda doston aytuvchi mubolag'a san'atining ig'roq turini yuksak mahorat bilan ifodalaganini yuqorida namunalar orqali ko'rib o'tdik.

Mubolag'aning uchinchi darajasi esa g'uluv. Bunda ishonish mumkin bo'lmagan, aqlga sig'maydigan, hayotda ham sodir bo'lmaydigan voqea-hodisalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o'lturur,
G'oyati nozuklugindin suv bila yutsa bo'lur. (Atoiy)

- ❖ Toychi viloyatinda, Qalmoq muzofatinda bir Surxayil degan kampir bor edi. Juda haddili zo'r kampir edi, bu kampirning yetti o'g'li bor edi, yettovi ham nomdor alp edi. Kattasini Ko'kaldosh der edi, undan kichkinasini Ko'kaman der edi, Ko'kqashqa der edi, Boyqashqa der edi, Toyqashqa der edi, Qo'shquloq, kenjatoyini der edi. Ul alplar qanday alp: yoyandoz, mergan alp, har qaysisi to'qson botmon temirdan sovut kiygan, har kuniga to'qson shirbozning etini ta'til qilgan, bosh-boshiga har qaysisi podshohlikdan har oyda besh yuz so'm moyana olgan xo'b birlanchi zo'r polvonlar. [1;44]

Dostondagi Surxayil kampirning o'g'illari bag'oyatda ulkan qilib tasvirlangan.

Ushbu parchadagi har biri to'qson botmon temirdan sovut kiygani ishonib bo'lmas darajada tasvirlangan, shu sababli g'uluv turiga mansub misol demakdir.

- ❖ Qorajon aytdi: Biz o'zbek xohlaydigan bo'lmadik.

Mahramlar : Sizni o'zimiz sozlaymiz, - deb to'qson botmon temirdan sovut kiygan alp Qorajonni mahramlar otga mindirib, o'n to'rt oyning yakka jilovini olib, tip-tikka qilib zingkiytib, chorib tashladi. :

- Ana endi o'zbek xohlaydigan shiydam bo'ldingiz,- dedi. [1;61]

Demak, yuqoridagi qism ham g'uluvga namuna bo'ladi.

- ❖ Chiltonlar ilmi karomat bilan Chilbir cho'lidan, Oyna ko'lidan, baxmal o'tovda uxlab yotgan yeridan, Barchinning ruhini olib keldi tanidan. Alpomish bunda uxlab yotibdi, uxlab yotgan yeridan buning ham ruhini tanidan oldi. Alpomishning ruhi bilan Barchinning ruhini o'rtada bir yerga qo'ydi. Bir kosa sharobi antahur chiltonlardan Barchinning ruhiga tegdi. Barchinning ruhi sharobni qo'lga olib, Alpomishni ko'rib, bir o'zi ichgani ko'ngli bo'lmay, Alpomishning ruhiga oling -oling qilib, bir so'z aytib turgan ekan:

Oling allayor-allayor,
Keling, allayor-allayor,
Bo'ling, allayor-allayor.

Kosa ushlab qo'lim toldi,
Biyning qizi mahtal bo'ldi,
Ko'nglingiz kimdan qoldi,
Boqolmay yurdik sabildi,
Xon to'ram , sizga ne bo'ldi,
Oling, allayor- allayor

Chilton – diniy tasavvurlarga ko'ra , g'ayritabiiy kuchga ega bo'lgan afsonaviy 40 ta ruh.

Antaho'r sharobi – ilohiy may, majozan ish-muhabbat uyg'otuvchi may. Aslida so'fiylik bo'lsa ham , folklorda haqiqiy hayotni sevish kayfini ifodalash uchun ishlatiladi. [1;125]

Demak, yuqoridagi satrlarda ham chiltonlar Alpomish va Oybarchinning ruhini olib kelib, bir-biriga uchratishi, suhbat qurishi mubolag'a san'atining g'uluv turi orqali chiroyli yoritib berilgan.

Quyidagi parcha g'uluv darajasiga namunadir:

❖ Alpomish keldimi ?

- Keldi, - dedi.
- Shul yurtlardan shul otini minib, xotin olib ketaman deb ahmoq bo'lib yururmi ?
- Shul otni minib kelgan ekan , - dedi.

Ko'sa Sinchi degan sinchisi bor edi, sinchisiga aytdi:

-Tushib o'zbekning otini ko'r qani. Tushib Boychiborni ko'rdi : qarichlab ko'rdi: Sag'risining ustidan qulochining o'rtasigachayin to'qson olti qarich chiqdi, ayil tortuvi oltmish uch qarich chiqdi. Sag'risini silab , burnidan naycha qo'yib, durbin bilan qarab ko'rdikim, qo'ltig'ida to'rt yarim gaz qanoti buklam-taklam bo'lib yotir. [1;169]

Ot obrazi o'zbek folklorida qahramonlarning murod-maqsadiga erishishida, yovlarni yengib o'tishda, suyukli mahbubalariga erishishda doim hamroh bo'lgan ishonchli do'st desak mubolag'a bo'lmaydi. Alpomishning Boychibor oti ham alplar bilan jang qilib, yoriga erishishda yordam bergan. Alpomish otsiz uzoq masofani qisqa vaqt ichida bosib ham o'tolmas edi, Oybarchinni ham qo'ldan boy berishi ham mumkin edi, albatta.

❖ Endi yuqoridagi parchani she'riy misol tarzida namuna qilib keltirmoqchiman:

Minganlarning haqdin yetar maqsadi,
Qo'ltig'ida to'rt yarim gaz qanoti,
Asil tulpor ekan o'zbekning oti.[1;170]

- ❖ Shomurti yoqalab har yoqqa ketgan,
Ichida sichqonlar bolalab yotgan,
Izidan tushgan pishak olti oyda yetgan.
Odam tushmas uning aytgan tiliga,
Besh yuz quloch arqon yetmas beliga.
Bu qalmoqdir, qalmoqlarning ravishi,
Oh ursa olamni buzar tovushi,
To'qson molning terisidan kovushi.
Qahrlansa toshni yorar qahari,
To'qson qorning go'shti bo'lmas nahori,
Har iziga ketar ancha bahori,
Oltmish qari olachadan qalpog'i,
To'qson qo'yni terisidan telpagi,
To'rt yuz to'qson quloch qo'lda hassasi,
Sarhovuzdan katta edi kosasi,
Shuni bilan o'n sakkizta nashasi,
To'qson qari bo'zdan bo'lgan kissasi

Ushbu misralarda Surxayil mastonning o'g'illari – alplarning tavsifi keltirilgan. Bundan ko'rishimiz mumkinki, o'zbek qizi, latofatli, dono, kuchli Barchinoyga mos emasligini ochiq-oydin tushunib olishimiz mumkin. Qolaversa, bir o'rinda otasi “Barchinoy qizimni tengquriga bermasam , mahshar kuni uning qo'li yoqamda bo'lmaydimi” deb ta'kidlab o'tgan. Shubhasiz, yuqoridagi tasvirlar g'uluvga misol bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Alpomish dostonida mubolag'a san'ati asarning mazmun-mohiyati, xalqqa mashhurlik jihatlarini yorqin namoyon etishda muhim rol o'ynaydi. Mubolag'a orqali qahramon obrazlari oddiy inson darajasidan ko'tarilib, xalq orzu-idealini ifodalovchi qahramon sifatida tasvirlanadi. Dostonda mubolag'a voqealarning ta'sirchanligini oshirib, o'quvchida hayrat va faxr tuyg'ularini uyg'otishini ko'rib o'tdik. Demak, dostonidagi har bir shaxs, voqea-hodisaning ishonarli, jonli chiqishida mubolag'a san'ati muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alpomish. Aytuvchi : Fozil Yo'ldosh o'g'li. Xalq og'zaki ijodi. – “Zukko kitobxon “ nashriyoti, 2025. – 575 b.
2. (Alpomish) – Toshkent : O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “ Fan “ nashriyoti davlat korxonasi , 2018. – 368 b.

3. Mirzayev T. , Turdimov Sh. , Jo'rayev M. , Eshonqulov J. , Tilavov A.
O'zbek folklori. Toshkent : “ MALIK PRINT CO” , 2022. – 240 b.
4. Hojiahmedov Anvar. She'r san'atlarini bilasizmi? - “ Sharq “ nashriyot -
matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent – 2001. - 95 b.